

Kredit nomi	“Refinans” krediti
Kredit maqsadi	Boshqa bankdan olingan kreditni to‘liq yopish uchun kredit
Kredit ajratiladigan tashkilotlar	Yakka tartibdagi tadbirkorlar
	Xususiy korxonalar
	Mas’uliyati cheklangan jamiyat, shuningdek yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan barcha tadbirkorlik subyektlari
Kreditlash pul birligi	O‘zbek so‘mi
Ajratiladigan kredit summasi	500 mln. so‘mgacha (lekin qayta moliyalashtirilayotgan kreditning qolgan qismidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda)
Ajratiladigan kredit muddati	36 oygacha
Imtiyozli muddat	Mavjud emas
Foiz stavkasi	Yillik 23%
Ta‘minot	Ajratilayotgan kredit summasining 125% dan kam bo‘lmasligi lozim
Ta‘minot sifatida olinadigan garov turlari	Kredit qaytmasligi xavfini sug‘urtalash polisi
Qo‘shimcha ta‘minot	Majburiy tarzda direktor yoki ustav fondidagi ulushi 50%dan oshgan ta’sischi kafilligi olinadi
Kredit so‘ndirish bo‘yicha shartlar	Annuitet to‘lov usulida
Taqdim etish usuli	Qayta moliyalashtirilayotgan kreditni asosiy qismini (asosiy qarz) qoplash uchun pul ko‘chirish yo‘li bilan
Boshqa bankdagi kreditga bo‘lgan talablar	Barcha shartlar bajarilishi shart: 1) Qarz oluvchi yakka tartibdagi tadbirkor yoki yuridik shaxs bo‘lishi kerak; 2) Asosiy qarzning kamida 6 ta grafik bo‘yicha so‘ndirilishi amalga oshirilgan bo‘lishi kerak; 3) Qayta moliyalashtirilayotgan kredit maqsadsiz va garovsiz berilgan bo‘lishi kerak; 4) Qayta moliyalashtirilayotgan kredit davlat moliyalashtirish dasturlari doirasida berilmagan bo‘lishi kerak; 5) Qayta moliyalashtirilayotgan kreditni shartnomasi qayta tuzish yoki uzaytirish holati kuzatilmagan bo‘lishi kerak; 6) Joriy muddati o‘tgan qarz yoki oxirgi 6 oy davomida to‘plangan 60 kundan ortiq muddati o‘tgan qarz mavjud bo‘lmasligi kerak; 7) Qayta moliyalashtirilayotgan kredit overdraft, biznes kredit kartasi yoki qayta tiklanadigan kredit liniyasi shaklida berilmagan bo‘lishi kerak; 8) Qayta moliyalashtirilayotgan kredit shartnomasi shartlariga ko‘ra muddatidan oldin so‘ndirish taqiqlanmagan.
Qo‘shimcha shartlar	Kredit limiti "Imkoniyat" kredit mahsuloti metodikasi bo‘yicha hisoblanadi. Ariza ma’qullangandan so‘ng, kredit berishdan oldin asosiy hisobvaraqlari Milliy bankka o‘tkazish va aylanmalarni Milliy bankka o‘tkazish bo‘yicha kovenant o‘rnatish majburiy hisoblanadi.